

UDC: 341.1(045)(575.1)
ORCID: 0000-0002-8141-5800

AYRIM XORIJY MAMLAKLARDА TERGOV QILISHGA YOKI SUD ISHLARINI HAL ETISHGA ARALASHISH JINOVATI UCHUN JAVOBGARLIK MASALALARI

Anorboyev Murodjon Raxmanqul o'g'li,
Toshkent davlat yuridik universiteti "Jinovat huquqi,
kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish"
kafedrasi doktoranti
e-mail: murodjonanorboev@list.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligi, xususan, Jinovat kodeksi "Odil sudlova qarshi jinoyatlar" bobi "Tergov qilishga yoki sud ishlarini hal etishga aralashish" moddasi normalari tahlil qilingan. Maqolaning asosiy vazifalaridan biri tergov qilishga yoki sud ishlarini hal etishga aralashish jinoyatini ayrim xorijiy mamlakatlar jinoyat qonunchiligi normalari asosida qiyosiy tahlil qilish va shu orqali ushbu sohaning huquqiy asoslarini muntazam ravishda takomillashtirib borish, ushbu jinoyatlarga qarshi kurashda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ko'plab huquqiy muammolarni bartaraf etishdan iborat. Shu bilan birga, tergov qilishga yoki sud ishlarini hal etishga aralashish jinoyatining belgilari, sohadagi jinoiy munosabatlarning obyektiv va subyektiv jihatlari yoritib berilgan. Tadqiqotning asosiy mazmuni, mazkur sohadagi munosabatlarda vujudga keluvchi holatlarni bartaraf etish yuzasidan qonunchilik rivojlanishini tahlil qilishdir. Bundan tashqari, tergov qilishga yoki sud ishlarini hal etishga aralashish jinoyati sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilik jarayonini yanada rivojlantirish uchun tegishli xulosalar chiqarildi.

Kalit so'zlar: odil sudlov, aralashuv, hal etish, prokuror, tergovchi, surishtiruvchi, suda, tergov, sud ishlari, jinoyat ishi.

ВОПРОСЫ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЗА ПРЕСТУПЛЕНИЯ, СВЯЗАННЫЕ С ВМЕШАТЕЛЬСТВОМ В РАССЛЕДОВАНИЕ ИЛИ РАЗРЕШЕНИЕ СУДЕБНЫХ ДЕЛ, В НЕКОТОРЫХ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАНАХ

Анорбоев Муроджон Раҳманкул угли,
докторант кафедры "Уголовное право,
криминология и противодействие коррупции"
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье анализируются нормы уголовного законодательства Республики Узбекистан, в частности статья, касающаяся вмешательства в расследование или урегулирование судебных дел главы "Преступления против справедливого судебного разбирательства" Уголовного кодекса Республики Узбекистан. Одной из основных задач статьи является проведение сравнительного анализа преступления вмешательства в расследование или разрешение судебных дел на основе норм уголовного права некоторых зарубежных стран и благодаря этому регулярное совершенствование правовой базы в этой сфере, устранение многих правовых проблем, которые могут возникнуть в борьбе с преступностью. При этом выделяются признаки преступления вмешательства в расследование или разрешение судебных дел, объективные и субъективные аспекты уголовных отношений в данной сфере. Основное содержание исследования – анализ развития законодательства об устранении ситуаций, возникающих во взаимоотношениях в данной сфере. Кроме того, были сделаны соответствующие выводы для дальнейшего развития законодательного процесса, регулирующего отношения в сфере вмешательства в расследование или разрешение судебных дел.

Ключевые слова: правосудие, вмешательство, урегулирование, прокурор, следователь, дознаватель, судья, расследование, судебные дела, уголовные дела.

QUESTIONS OF RESPONSIBILITY FOR A CRIME INTERFERENCE IN INVESTIGATION OR CONSIDERATION OF CASES IN COURT IN SOME FOREIGN COUNTRIES

Anorboev Murodjon Rakhmankul ugli,
Doctoral student of the Department of Criminal Law,
Criminology and Anti-corruption of
Tashkent State University of Law

Abstract. This article analyzes the norms of the criminal legislation of the Republic of Uzbekistan, in particular, the article of the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan on "Interference in the investigation or settlement of court cases" under the chapter "Crimes against a fair trial". One of the main objectives of the article is to conduct a comparative analysis of the crime of interference in the investigation or resolution of court cases based on the norms of the criminal law of some foreign countries and, thanks to this, regular improvement of the legal framework of this area, the elimination of many legal problems that may arise in the fight against crime. At the same time, there are signs of a crime involving interference in the investigation or resolution of court cases, the object and sub-aspects of criminal relations in this area. The main content of the study is to analyze the development of legislation to eliminate situations inherent in relationships in this area. In addition, relevant conclusions were drawn for the further development of the legislative process regulating relations in the field of criminal interference in the investigation or resolution of court cases.

Keywords: justice, intervention, settlement, prosecutor, investigator, inquirer, judge, investigation, court cases, criminal cases.

Kirish

Tergov qilishga yoki sud ishlarini hal etishga aralashish uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi jinoyat qonuni normasining jinoyat-huquqiy muammolari haqida ilmiy izlanish olib borish o'z-o'zidan paydo bo'lmadi.

Mavjud sud va tergov amaliyoti tahlili, Jinoyat kodeksining 236-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlar bo'yicha statistik ko'rsatkichlar hamda xorijiy mamlakatlar jinoyat qonunlarida tergov qilishga yoki sud ishlarini hal etishga aralashish jinoyati, ya'ni ushbu moddani qo'llash bo'yicha jinoyat qonunchiligining tahlili nuqtayi nazardin ko'rib chiqishning dolzarbligini keltirib chiqaradi.

Jahonda tergov qilishga yoki sud ishlarini hal etishga aralashish uchun jinoiy javobgarlik va jazo tayinlash yuzasidan yagona tajriba mavjud emas, lekin milliy xususiyatlarning yondashuviga turfa xilligi bilan, ko'pgina mamlakatlar uchun umumiyoq bo'lgan asosiy belgilarni aniqlab olish mumkin. Tergov qilishga yoki sud ishlarini hal etishga aralashish jinoiy javobgarlik masalasi - ni tahlil qilishda xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish va tahlil qilish dolzARB ahamiyat kasb etadi. Bu orqali tergov qilishga yoki sud ishlarini hal etishga aralashish uchun jinoiy javobgarlik-

ning shakllarini, o'ziga xos xususiyatlarini yana-da kengroq o'rganish va tegishli xulosalar chiqarish mumkin bo'ladi.

Mavzuning batafsil mazmunini quyidagi holat bo'yicha ham ko'rishimiz mumkin. Ak-sariyat xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligidan tergov qilishga yoki sud ishlarini hal etishga aralashish tushunchasi umuman qo'llanilmagan. Xorijiy mamlakatlar qonunchiligining tahlilini biz tergov qilishga yoki sud ishlarini hal etishga aralashish uchun javobgarlikni belgilangan jinoyat-huquqiy normalar manbalarini: 1) MDHga a'zo davlatlar; 2) Anglo-sakson huquq tizimidagi davlatlar; 3) Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar; 4) Roman-german huquq tizimidagi davlatlar jinoyat qonunchiligidan kelib chiqib o'rganishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Qo'llanilgan metodlar sifatida qiyosiy-tahlil metodini keltirib o'tgan holda hozirgi kundagi odil sudlovga qarshi jinoyatlar sohasida, xususan, tergov qilishga yoki sud ishlarini hal etishga aralashish jinoyatining ayrim xorijiy mamlakatlar jinoyat qonunchiligidagi tutgan o'rni yoritib berishga harakat qilingan.

MDHga a'zo mamlakatlar jinoyat qonunchiligidan nazarda tutilgan tergov qilishga yoki sud ishlarini hal etishga aralashish jinoyati

uchun belgilangan normalar masalasiga kelsak, o'n bitta MDH davlatlari jinoyat kodekslari tahlil qilindi. Xususan, Qozog'iston, Tojikiston, Turkmaniston, Qirg'iziston, Rossiya Federatsiyasi, Belarus Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon, Armaniston, Moldova, Gruziya kabi davlatlar.

Qozog'iston Respublikasi Jinoyat kodeksida [1] "Odil sudlovga qarshi jinoiy huquqbuzarlik va jazolarni ijro etish tartibi" deb nomlangan 17-bobining [2] 407-moddasiga to'xtalib o'tamiz. [3]. Ushbu modda "Odil sudlov va dastlabki tergovni amalga oshirishga to'sqinlik qilish" deb nomlangan. U o'z o'rnida quyidagi uch qismidan iborat:

1) odil sudlovni amalga oshirishga to'sqinlik qilish uchun sud faoliyatiga har qanday shaklda aralashish;

2) har tomonlama, to'liq va obyektiv dastlabki tergovning oldini olish uchun prokuror yoki dastlabki tergovni olib boruvchi shaxsning faoliyatiga har qanday shaklda aralashish;

3) ushbu muddaning birinchi yoki ikkinchi qismida nazarda tutilgan harakatlar uning mansab vakolatidan foydalangan shaxs tomonidan sodir yetilgan bo'lsa, ushbu modda qoidalari tatbiq qilinadi. Ta'kidlash kerakki, O'zbekiston JKdan farqli ravishda Qozog'iston Respublikasi JKda tergov qilishga yoki sud ishlarini hal etishga aralashish jinoyati uchun javobgarlik belgilangan modda uch qismidan iborat [4] va javobgarlikni og'irlashtiruvchi belgilarining umumiy hamda o'ziga xos jihatlari mavjud.

Belarus Respublikasining amaldagi Jinoyat kodeksida XIII bo'lim "Hokimiyat va boshqaruvni amalga oshirish tartibi hamda davlatga qarshi jinoyatlar" deb nomlangan bo'lib, 34-bob Odil sudlovga qarshi jinoyatlarga bag'ishlangan [5]. Xususan, tergov qilishga yoki sud ishlarini hal etishga aralashish jinoyati aynan bitta muddada [6]. 1) 390-modda "Sud ishlarini hal qilishga yoki dastlabki tergovni o'tkazishga aralashish" deb nomlangan bo'lib, u 1 ta qismidan iborat, ya'ni mansabdar shaxsning o'z rasmiy vakolatlaridan har qanday shaklda suda, xalq maslahatchisi, prokuror, tergovchi yoki surishtiruv olib borayotgan shaxs faoliyatiga aralashishi ishni har tomonlama, to'liq va xolisona tekshirish yoki tergov qilishning oldini olish yoki noqonuniy sud hukmini, qarorini, boshqa sud hujjatini yoki jinoyat protsessida jinoyi prokuratura organining noqonuniy qarorini

olishga qaratilgan bo'lsa, ushbu modda qoidalari tatbiq qilinadi [7].

Tergov qilishga yoki sud ishlarini hal etishga aralashish jinoyati yuzasidan xorijiy tajribani o'rganar ekanmiz, yuqorida qayd etganimizdek, turli mamlakatlarda bu jinoyat uchun turlicha javobgarlik belgilangan va bu jinoyat turlicha talqin etilgan. Ayrim MDH davlatlari Jinoyat kodekslarida ushbu jinoyat deyarli O'zbekiston Respublikasi Jinoyat qonunchiligi bilan bir xil ekanligini qayd etish mumkin.

Masalan, Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining X Bo'limi "Davlat boshqaruviga qarshi jinoyatlar" [8] deb nomlangan bo'lib, "Odil sudlovga qarshi jinoyatlar"ga bag'ishlangan 31-bobining 294-moddasida [9] Tergov qilish va sud ishlarini hal etishga aralashganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan, unga ko'ra tergov qilish yoki sud ishlariga aralashish birorta sud protsessida chiqariladigan hukm, qaror va boshqa hujjatlarning noqonuniy chiqarilishiga erishish maqsadida biror-bir qarshilik qilish yoki oldindan ta'sir o'tkazish uchun jinoiy javobgarlik belgilangan [10].

Shuningdek, Rossiya Federatsiyasida Prokuror tergovchi tomonidan tergov olib borishiga har qanday aralashish, qattiq tushuntirishlar berish, tahdid qilish, qo'rqtish uchun javobgarlik belgilangan va ushbu modda ikkinchi qismida ushbu jinoyat davlat mansabidan foydalangan holda sodir etilishi og'irlashtiruvchi holat sifatida belgilangan [11].

Bundan tashqari, Ukraina Respublikasi amalagi Jinoyat kodeksining "Odil sudlovga qarshi jinoyat" deb nomlangan XVIII bo'limida alohida bobga ajratilmagan holda keltirib o'tilgan [12]. Xususan, tergov qilishga yoki sud ishlarini hal etishga aralashish jinoyati aynan 376-modda, ya'ni "Sud faoliyatiga har qanday ko'rinishdagi aralashish" muddasida jinoiy javobgarlik belgilangan bo'lib, eng kam oylik ish haqining 50 baravarigacha jarima yoki ikki yilgacha jamoat ishlari yoki olti yilgacha qamoq jazosi belgilangan [13]. Agarda ushbu qilmish huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari tomonidan sodir etilsa, besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum etish yoki olti oygacha qamoq yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum etish jazosi qo'llaniladi [14].

Tojikiston Respublikasi amalagi Jinoyat kodeksining XIII bo'limi "Davlat boshqaruviga qarshi jinoyatlar" deb nomlangan bo'lib, aynan shu

bo'limdagi "Odil sudlovga qarshi jinoyatlar"ga bag'ishlangan 32-bobi 345-moddasida [15] odil sudlov, surishtiruv va dastlabki tergovga to'sqinlik qilish uchun jinoiy javobgarlik belgilangan [16]. O'z navbatida, ushbu jinoyat Rossiya Federasiyasi, O'zbekiston Respublikasi JKlari kabi 1 ta moddada jamlangan va ushbu JKlar odil sudlovga qarshi jinoyatlar nuqtayi nazaridan ko'plab o'zaro o'xshash jihatlarini uchratish mumkin.

Turkmaniston Respublikasi amaldagi Jinoyat kodeksining X bo'limi "Davlat organlari faoliyatiga qarshi jinoyatlar" deb nomlangan [17] bo'lib, 24-bob "Odil sudlovga qarshi jinoyatlar"ga bag'ishlangan. 189-moddada Odil sudlovga va dastlabki tergovga to'sqinlik qilish ko'rsatib o'tilgan [18]. Ushbu modda uch qismdan iborat. Bular:

1) odil sudlovga to'sqinlik qilish maqsadida sudning faoliyatiga har qanday shaklda aralashish;

2) ishni har tomonlama, to'liq va obyektiv tekshirishga yo'l qo'ymaslik uchun prokuror, tergovchi yoki surishtiruv olib borayotgan shaxsning faoliyatiga har qanday shaklda aralashish;

3) ushbu moddaning birinchi yoki ikkinchi bandida nazarda tutilgan harakatlar uning mansab vakolatidan foydalangan shaxs tomonidan sodir etilganda jinoiy javobgarlik belgilangan.

Qirg'iziston Respublikasi amaldagi Jinoyat kodeksining IX bo'limi "Davlat hokimiyatiga qarshi jinoyatlar" deb nomlangan [19]. Xususan, ikki bobning bittadan moddalari, ya'ni 45-bobning (Sudlovga qarshi jinoyatlar) 332-moddasi "Odil sudlovga to'sqinlik qilish" va 46-bobning (Dallarni olishning protsessual tartibiga qarshi jinoyatlar) 337-moddasi "Surishtiruv organining prokuror, tergovchi, vakolatli mansabdor shassi faoliyatiga to'sqinlik qilish" deb nomlangan va bu moddalarda ushbu jinoyat uchun javobgarlik belgilab qo'yilgan. Ushbu moddalar har ikkalasi bittadan qismlardan iborat. O'zbekiston Respublikasi JKdagi 236-moddasi Tergov qilishga yoki sud ishlarini hal etishga aralashish jinoyatining o'zaro farqli jihatni Qirg'iziston Respublikasi JKda ikkita bobda keltirib o'tilganligi va ikkita moddada alohida dispozitsiya va sanksiya belgilab qo'yilganligida ko'rindi.

Ozarbayjon Respublikasi amaldagi Jinoyat kodeksi [20]ning "Davlat hokimiyatiga qarshi jinoyatlar" deb nomlangan XI bo'limining 32-bobi-

da "Odil sudlovga qarshi jinoyatlar"ga bag'ishlangan 286-modda mavjud [21]. U "Odil sudlovga va dastlabki tergovga to'sqinlik qilish" deb nomlanib, quyidagi uchta qismdan iborat [22]:

286.1. Odil sudlovni amalga oshirishga to'sqinlik qilish uchun sud faoliyatiga har qanday shaklda aralashish;

286.2. Ishning xolisona, to'liq va har tomonlama tergov qilinishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida prokuror, tergovchi yoki surishtiruv olib boruvchi shaxsning faoliyatiga har qanday shaklda aralashish;

286.3. Ushbu kodeksning 286.1 va 286.2-modalarida nazarda tutilgan harakatlar, rasmiy lavozimidan foydalangan shaxs tomonidan sodir etilgan [23] hollarda jinoiy javobgarlik og'irlashtiruvchi holatda keltirilgan.

Ozarbayjon Respublikasi JKning odil sudlovga qarshi jinoyatlaridan iborat moddalar Turkmaniston Respublikasi JK singari bir xilda nomlangan bo'lib, ushbu jinoyatlar uchun alohida bob ajratilgan va ular uch qismdan iborat holda o'z aksini topgan.

Armaniston Respublikasi amaldagi Jinoyat kodeksi [24]ning "Davlat hokimiyatiga qarshi jinoyatlar" deb nomlangan XI bo'limining "Odil sudlovga qarshi jinoyatlar" nomli 31-bobi 332-moddasi Odil sudlovga va tergovga to'sqinlik qilishga bag'ishlangan. Ushbu modda uch qismdan iborat [25]:

Armaniston Respublikasi JK Odil sudlovga qarshi jinoyatlar normalari ham O'zbekiston Respublikasi JK normalariga o'xshash. Ammo moddalardagi og'irlashtiruvchi holatlar alohida tartibda yagona qismni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin. Armaniston JKning o'ziga xos xususiyati jinoyatga jazoning muddati va miqdori nisbatan kamroq belgilanganligida hamda modda qismlarida. Fikrimizcha, Armaniston JKda Odil sudlovga qarshi jinoyatlar uchun jazo tayinlash masalasi nisbatan to'g'ri tartibga solingan.

Moldova Respublikasining amaldagi Jinoyat kodeksining "Odil sudlovga qarshi jinoyatlar" deb nomlangan XIV alohida bob [26]da keltirib o'tilgan. Xususan, 303-modda Odil sudlovni amalga oshirishga va jinoiy javobgarlikka tortishga aralashish jinoyatiga bag'ishlangan va 3 ta qismdan iborat [27]. Moldova JK normalari ketma-ketligi tartibi umumiy va maxsus qismlarda O'zbekiston

Respublikasi JKga juda ko'p holatlarda o'xshash ekanligini ko'rish mumkin.

Gruziya Respublikasi amaldagi Jinoyat kodeksining XII bo'limi "Sud hokimiyatiga qarshi jinoyatlar" deb nomlangan bo'lib, aynan "Sud organlari faoliyatiga qarshi jinoyatlar" nomli XLI bobi 364-moddasida belgilangan [28]. U 4 qismidan iborat, Gruziya Respublikasida ham ayrim davlatlar singari odil sudlovga qarshi jinoyatlar alohida bobga va moddaga ajratilgan.

Tadqiqot natijalari tahlili

Xorijiy mamlakatlar jinoyat qonunlarini tahlil qilish natijasida amin bo'ldikki, ko'pchilik rivojlangan mamlakatlarda tergov qilish va sud hokimiyatining mutaqilligi ta'minlangan hamda to'liq ta'minlanmagan mamlakatlar ham mavjud ekan. Shuningdek, Sud hokimiyatining tuzilmasi, avvalo, sudlarning o'zini qamrab oladi. Anglo-sakson huquq tizimidagi mamlakatlarda ular yagona tizimni tashkil etadi, unga ko'ra turli soha sudlarga yagona oliy sudga birlashadi. Ayni paytda, ko'pchilik mamlakatlar, ayniqsa, Yevropa qit'asida sudyalarning ko'p tizimli tendensiyasi kuzatiladi. Bu mamlakatlarda oliy sud boshchiligidagi umumiy va maxsus sudlarning bir-biridan alohida mustaqil bo'lgan sud tizimlari tashkil etilmoqda. Bunga yorqin misol qilib, 1949-yilda qabul qilingan Germaniya Asosiy Qonunini ko'rsatish mumkin, unda Federal konstitusiyaviy sud bilan bir qatorda yana alohida beshta sud ta'sis etishi ko'zda tutilgan, bular: Federal sudlar palatasi, Federal ma'muriy sud, Federal moliya sudi palatasi, Federal mehnat sudi, Federal ijtimoiy sud. Ular sud amaliyotida bir xillikni ta'minlash maqsadida hamkorlikdagi (qo'shma) senatni tashkil etadilar [29].

Roman-german huquq tizimidagi mamlakatlarda va ba'zi bir boshqa mamlakatlarda umumiy yurisdiksiya sudlar tizimi bilan bir qatorda, (ya'ni asosan, fuqarolik va jinoiy ishlarni ko'rib chiquvchi sudlar) davlat kengashi deb ataluvchi (Fransiya, Italiya) hamda Oliy ma'muriy sud deb ataluvchi organ tomonidan (Shvetsiya) boshqariluvchi ma'muriy adliya tizimi barpo etiladi. Ba'zi bir postsotsialistik mamlakatlarda ham (Bolgariya, Chexiya) xuddi shu tarzda ikkitadan sud tizimi ta'sis etilgan.

Polshada Oliy ma'muriy sud, hozircha, Oliy sud tomonidan nazorat qilinadi, biroq Polsha Respublikasi Konstitutsiyasining 236-moddasasi, 2-qismiga muvofiq, 5 yil mobaynida, ya'ni u kuchga kir-

gan 1997-yildan to 2002-yilgacha Oliy ma'muriy sudning mamlakat Oliy sudidan mastaqil bo'lishini ta'minlovchi "Ma'muriy sudlar to'g'risida"gi Qonun qabul qilinishi lozim. Ko'pchilik mamlakatlarda harbiy sudlar tinch davrda tashkil etilmaydi. (Qarang: masalan, 1920-yilda qabul qilingan va 1929-yilda tahrir etilgan Avstriya Federal Konstitutsiyaviy qonunining 84-moddasiga muvofiq), agar mamlakatda harbiy sud oldindan mavjud bo'lsa, u umumiy yurisdiksiyaning alohida bir sohasini tashkil etadi. Xuddi shu narsani ma'muriy sudlar xususida va boshqa ba'zi bir maxsus sudlar: oilaviy, voyaga yetmaganlar, mehnat, patent, moliyaviy soliq sudlari haqida ham aytish mumkin.

Tergov qilishga yoki sud ishlarini hal etishga aralashish jinoyatini xorijiy mamlakatlar jinoyat qonunchilagini o'rganish natijasida amin bo'ldikki, ko'pgina mamlakatlar jinoyat qonunchilida tergov qilish yoki sud ishlariga aralashish qanday shakllarda amalga oshirilishi aniq belgilangan.

Masalan, Albaniya Respublikasi Jinoyat kodeksining 301-moddasasi sud ishlariga to'sqinlik qilganligi uchun jinoiy javobgarlik belgilangan bo'lib, unga ko'ra ko'rileyotgan jinoiy ishni o'zgartirish, izlarni soxtalashtirish, yo'qotish, harakatlarni yashirish, yo'nalishni boshqa tomonga o'zgartirish harakatlari sud faoliyatiga to'sqinlik qilish deb baholanib, bu jinoyat uchun uch yilgacha ozodlikdan mahrum etish jazosi belgilangan [30].

Vengriya Respublikasi Jinoyat kodeksining 242/A-moddasiga muvofiq sud yoki boshqa sud tartibida ish yurituv jarayonida sudning qonuniy huquqlariga kuch ishlatalish yoki kuch bilan taxdid qilish, uning harakat yoki harakatsizligiga be-parvolik qilishini talab etish, qo'rqtib ogohlantirish jinoyat deb topiladi. Agar, bu aralashish yoki to'sqinlik qilish bir jinoyat ishi bilan bog'liq bo'lsa, besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum etish jazosi bilan jazolanadi. Shuningdek, Vengriya Respublikasi Jinoyat kodeksining 242/A-moddasi uchinchi qismiga ko'ra, ushbu aralashish yoki to'sqinlik fuqarolik ishi bilan yoki intizomiy, hakamlik yoki boshqa har qanday sud ishlari bilan bog'liq bo'lsa yoki sud a'zolarini biror-bir manfaatga qiziqtirsa, besh yildan ko'p bo'limgan ozodlikdan mahrum etish jazosi bilan jazolanadi. Bundan tashqari, Vengriya Respublikasida Vengriya bilan bog'liq bo'lgan har qanday xalqaro ishlarni ko'ruchi Vengriya Xalqaro sudi mavjud bo'lib, ushbu sudning ishlariga aralashish uchun ham Vengri-

ya Respublikasi Jinoyat kodeksining 249/B-moddasida jinoiy javobgarlik belgilangan [31].

Bundan tashqari, Latviya Respublikasi Jinoyat kodeksida “Tergov qilishga yoki sud ishlarini hal etishga aralashish” jinoyati mustaqil ikki tarkibli jinoyat sifatida mustahkamlangan. Ya’ni Latviya Respublikasi Jinoyat kodeksining 294¹-moddasida dastlabki jinoyat protsessiga aralashganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan bo’lib, unga ko’ra, tergov faoliyati yo’nalishini o’zgartirish yoki noqonuniy qaror qabul qilishga erishish maqsadida dastlabki jinoyat protsessiga to’sqinlik qilish, aralashish, biror-bir tarzda ta’sir etish ijtimoiy xavfli harakatlari uchun ozodlikdan mahrum etish, jamoadan ajratib qo’yish, ijtimoiy xizmatlarga jalb etish yoki jarima jazosi bilan jazolanadi [32]. Ushbu moddaning ikkinchi qismida esa ushbu harakatlar mansabdor shaxslar tomonidan sodir etilganligi uchun jinoiy javobgarlik belgilangan bo’lib, bir yil muddatga muayyan huquqdan mahrum etish yoki ozodlikdan mahrum etish, besh yildan ko’p bo’lmagan muddatga ja-moat ishlariga jalb etish yoki ma’lum bir vazifadan ozod etish jazolaridan biri belgilangan.

Shuningdek, Latviya Respublikasi Jinoyat kodeksining 295-moddasiga 2012-yil dekabr oyida kiritilgan o’zgartirishga ko’ra, sud ishlariga aralashganlik, ya’ni noqonuniy hukm yoki qaror qabul qilish yoki e’lon qilishga erishish uchun biror-bir tarzda suda, maslahatchilarga ta’sir ko’rsatish uchun jinoiy javobgarlik belgilangan va bu uchun uzoq bo’lmagan muddatga ozodlikdan mahrum etish yoki jamoat ishlariga jalb etish jazosi qo’llaniladi. Ushbu moddaning ikkinchi qismida esa mansabdor shaxslarning sud ishlariga aralashganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan va bu qilmish uchun bir yildan kam bo’lmagan ozodlikdan mahrum etish va jamoat ishlariga jalb etish bilan birgalikda besh yildan ko’p bo’lmagan mansabdor shaxs lavozimidan ozod etish jazolari qo’llaniladi [33].

Xulosalar

Tadqiqot natijasi sifatida ko’rinadiki, odil sudlovga qarshi jinoyatlar faqat maxsus bobda belgilangan normalar MDHning 11 ta davlati JKlarining faqat ikkitasida nazarda tutilgan (Ukraina, Moldova). MDHga a’zo qolgan barcha mamlakatlar JKda tergov qilishga yoki sud ishlarini hal etishga aralashish jinoyati uchun jinoiy javobgarlik aynan “Davlat hokimiyatiga qarshi jinoyatlar” bo’limining odil sudlovga qarshi jinoyatlarga tegishli bo-

bida belgilangan. Ayrim davlatlar jinoyat qonunlarida odil sudlovga qarshi jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlik 2 ta muddada mavjud (Qirg’iziston). Demak, MDHga a’zo davlatlarning o’ntasida ushbu jinoyat uchun jazo tayinlash muddalari farq qiladi. Tergov qilishga yoki sud ishlarini hal etishga aralashish jinoyati uchun jinoiy javobgarlik belgilangan ayrim xorijiy davlatlar jinoyat qonunlarining tahlili:

Birinchidan, barcha xorijiy mamlakatlar jinoyat qonunchiligidagi tergov qilishga yoki sud ishlarini hal etishga aralashish jinoyati uchun jinoiy javobgarlik belgilangan bo’lib, ular jazoga sazovor qilmish hisoblanadi.

Ikkinchidan, ayrim MDH mamlakatlari jinoyat qonunchiligidagi tergov qilishga yoki sud ishlarini hal etishga aralashish jinoyati mansabdorlik jinoyatlariga bag’ishlangan boblarda ifodalanganman. Bizningcha, mazkur yondashuv to’g’ri emas, chunki bu holat tergov qilishga yoki sud ishlarini hal etishga aralashish jinoyatini sud-tergov organlari tomonidan kvalifikatsiya qilish masalalarida bir qancha muammoli vaziyatlarni yuzaga keltilishi mumkin. Shuning uchun O’zbekiston JKga tegishli o’zgartirish kiritishda faqat og’irlashtiruvchi va yengillashtiruvchi holatlar to’g’risidagi norma nazarda tutilishi maqsadga muvofiq.

Yuqorida tahliliy fikrlardan xulosa qilinganda, qiyosiy-huquqiy tadqiq etish, o’z navbatida, xorijiy mamlakatlarda asosiy bo’lgan muammolarni hal qilishda o’zini oqlagan eng samarali omillarning asosini aniqlashga yordam beradi, shu bilan bir qatorda, ushbu davlatlar tajribasining salbiy tomonlarini, u yoki bu huquqiy yechimlarning samarasizligini hisobga olish uchun sharoit vujudga keltiradi.

Birinchidan, Tergov qilishga yoki sud ishlarini hal etishga aralashish jinoyati tushunchasiga quydagicha ta’rif berish maqsadga muvofiq:

Tergovga qadar tekshiruv, tergov yoki sud ishlarini hal etishga aralashish – bu jismoniy shaxslar tomonidan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki suda (shuningdek, sudyalar hay’ati va xalq maslahatchisi)ning normal faoliyat ko’rsatishiga qarshi ta’sir etish (subyektlari fuqarolar, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, suda, advokat, davlat yoki nodavlat sud eksperti).

Ikkinchidan, Tergov qilishga yoki sud ishlarini hal etishga aralashish jinoyati quydagi jinoyat-huquqiy belgilarga ega ekanligi ilmiy jihatdan asoslantirildi:

- muayyan yuridik alomatlarga ega bo'lgan ijtimoiy-huquqiy hodisa;

- tergov qilishga yoki sud ishlarini hal etishga aralashish jinoyati natijasida, avvalo, davlat manfaatlariga, davlat organlari manfaatlariga, davlat (harbiy) xizmatchisi yoki boshqa fuqarolarning huquqlariga zarar yetkaziladi;

- jinoyat subyektlarining doirasi cheklanganligi (*fuqarolar, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, suda, advokat, davlat yoki nodavlat sud eksperti*);

- jinoyat subyektlari o'z mansab mavqe-yidan, xizmat lavozimidan, davlat manfaatlariga zid maqsadlarda foydalanadilar.

REFERENCES

1. Criminal Code of the Republic of Kazakhstan July 16, 1997, no. 167 (as amended on 10-04-2020).
2. Bekmagambetov A.B., Revina V.P., Revina V.V. Ugolovnoye pravo Respublik Kazaxstan. Ocobennaya chast. Uchebnik. 2-oye izd., pererab. i dop. Pod red. Revina V.P. [Criminal law of the Republic of Kazakhstan. The special part. Textbook. 2nd ed. , revised and add. Ed. V.P. Revina]. Moscow, Publishing House of the Academy of Natural Sciences, 2017, p. 203.
3. Ugolovniy kodeks Respublik Kazaxstan ot 3 iyulya 2014 goda № 226-V (s izmeneniyami i dopolneniyami po sostoyaniyu na 02.07.2021 g.) [Criminal Code of the Republic of Kazakhstan dated July 3, 2014 No. 226-B (with amendments and additions as of 02.07.2021)]. Available at: https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=31575252/.
4. Borchashvili I.Sh. Kommentariy k Ugolovnomu kodeksu Respublik Kazaxstan. Osobennaya chast' [Commentary on the Criminal Code of the Republic of Kazakhstan. Special part]. Astana, 2011, p. 120.
5. Xilyuta V.V. Doljnostniye zloupotrebleniya: voprosi pravovoy otsenki i kvalifikatsii. Monografiya [Official abuse: issues of legal assessment and qualifications. Monograph]. Saarbryucken, LAP Lambert Academic Publishing, 2019, p. 328.
6. Molchan S.L., Suhova V.V. Ugolovnoye pravo. Uchebno-metodicheskoye posobiye [Criminal law. Teaching aid]. Gorki, Belarusian State Agricultural Academy, 2019, p. 184.
7. Criminal Code of the Republic of Belarus of July 9, 1999, no. 275-Z (as amended on 11-11-2019).
8. The Criminal Code of the Russian Federation No. 63-Fz Of June 13, 1996 (as amended on 04-04-2020).
9. Ugolovniy kodeks Rossiyskoy Federatsii ot 13.06.1996 N 63-FZ, red. ot 01.07.2021, s izm. i dop., vstup. v silu s 22.08.2021 [The Criminal Code of the Russian Federation of 13.06.1996 N 63-FZ, rev. from 01.07.2021, as amended and additional, entry. in force from 22.08.2021].
10. Ugolovnoye pravo. Osobennaya chast. V2 t. Tom 1. Uchebnik dlya vuzov. I.A. Podroykina [i dr.]; otvetstvennyiy redaktor I.A. Podroykina, E.V. Seregina, S. I. Ulezko. 5-e izd., pererab. i dop. [Criminal law. Particularly frequent. In 2 volumes, vol. 1. Textbook for universities. I.A. Podroykin [and others]; responsible editor I.A. Podroykina, E.V. Seregina, S. I. Ulezko. 5th ed., rev. and add.]. Moscow, Yurayt, 2020, p. 142.
11. Shtrafy za hamstvo dlja chinovnikov – Gosudarstvennoj dumoj prinjat novyj zakon [Fines for rudeness for officials - the State Duma adopted a new law]. Available at: <http://prokuror-kaluga.ru/razyasnenie-6262.html/>.
12. Criminal Code of the Republic of Ukraine of April 5, 2001 No. 2341-III (as amended on 13-04-2020)
13. Abz. 3 p. 13 postanovleniya Plenuma Verxovnogo Suda Ukrainskoy ot 12 aprelyya 1996 [Abs. z clause 13 of the resolution of the Plenum of the Supreme Court of Ukraine dated April 12, 1996]. P. 4.
14. Ugolovniy kodeks Ukrainskoy. Kommentariy. Pod redaksiyey Y.A. Karmazina i E.L. Strelsova [Criminal Code of Ukraine. A comment. Under the editorship of I.A. Karmazin and E.L. Strelsova]. Harkov, LLC Odyssey, 2001, p. 960.
15. Criminal code of the Republic of Tajikistan of May 21, 1998 (as amended on 04/20/2021).
16. Kamolov Z.A. Ponyatiye i priznaki sistemi nakazaniya po Ugolovnomu kodeksu respublik Tadzhikistan [The concept and features of the punishment system under the Criminal Code of the Republic of Tajikistan]. Rossiyskiy sledovatel – Russian investigator, 2010, no. 3, pp. 24–26.
17. Smirnov A.V., Kalinovskiy K.B. Kommentariy k Ugolovnomu kodeksu Turkmenistana. Postateyniy. Pod obsh. red. prof. A.V. Smirnova [Commentary on the Criminal Code of Turkmenistan. Article by article. Under total. ed. prof. A.V. Smirnova]. 2013, p. 638.

18. Criminal code of Turkmenistan of June 12, 1997, no. 222-1 (as amended on 30-11-2019).
19. Criminal code of the Kyrgyz Republic of february 2, 2017. no. 19 (as amended on 03-04-2020).
20. Ugolovnoye pravo Azerbaydjanskoy Respublik. Uchebnik dlya studentov vuzov, obuchayushixsy po spetsialnosti "Yurisprudensiya". I.B. Agayev, V.P. Revin [Criminal law of the Republic of Azerbaijan. A textbook for university students studying in the specialty "Jurisprudence". I.V. Agaev, V.P. Revin]. Moscow, Yurist, 2010. Ulyanovsk, Ulyanovskiy Dom pechatni, p. 640.
21. Kommentariy Ugolovnogo kodeksa Azerbaydjanskoy Respublik. Pod obsh. red. F. Y. Samandarova [Commentary on the Criminal Code of the Republic of Azerbaijan. Under total. ed. F.I.Samandarova]. Baku, Digesta, 2011, p. 990.
22. Criminal code of the Azerbaijan Republic of December 30, 1999 (as amended on 04/23/2021).
23. Imanli M.N. Ugolovnoye pravo. Osobennaya chast. Uchebnik [Criminal law. The special part. Textbook]. Baku, 2019, p. 155.
24. Criminal code of The Republic of Armenia of April 29, 2003, no. ZR-528 (as amended on 20.08.2021),
25. Ugolovnoye pravo Armenii i Rossii. Obshaya i Osobennaya chasti. Otv. red. S.S. Avetisyan, A.I. Chuchayev [Criminal law of Armenia and Russia. General and Special parts. Resp. ed. S.S. Avetisyan, A.I. Chuchayev]. Moscow, CONTRACT, 2014, p. 190.
26. Criminal Code Of The Republic Of Moldova of April 18, 2002, no. 21-II (amended 04/23/2021).
27. Bujor V.G, Gusulyak V.I., Spinu I.A. Kommentariy k Ugolovnomu kodeksu Respublik Moldova (obshaya chasti) [Commentary on the Criminal Code of the Republic of Moldova (general part)]. Kishinev, Kishineu, 2010, p. 227.
28. Criminal Code of Georgia. No. 2287 of 22 July 1999 (as amended 04/23/2021).
29. Germaniya Asosiy Qonuni, 95-modda, 1-va 3-qismlar [German Basic Law, Article 95, Parts 1 and 3].
30. Criminal code of the Republic of Albania Consolidated version as of October 13, 2021 Criminal Code of the Republic of Albania Law No. 7895, dated 27 January 1995.
31. The Criminal Code of the Republic of Hungary Act IV of 1978. Section 242/A, Section 249/B.
32. The Criminal Law of the Republic of Latvia. This Law has been adopted by the Saeima on 17 June 1998. This Law shall come into force on 1 July 2009. Section 294.1 Interference in the Pre-trial Criminal Proceedings.
33. The Criminal Law of the Republic of Latvia. This Law has been adopted by the Saeima on 17 June 1998. This Law shall come into force on 1 July 2009. Section 295. Interference in a Trial of a Matter.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

MAXSUS SON / 2021

II QISM

BOSH MUHARRIR:

Nodirbek Salayev

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ikrom Ergashev

Ilmiy boshqarma boshlig'i

Mas'ul muharrir: D. Xudoynazarov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, K. Abduvaliyeva,
F. Muhammadiyeva, Y. Yarmolik

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Faks: (0371) 233-37-48.

Web-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

E-mail: tn.tdyu@mail.ru

Jurnal 15.12.2021-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli 25,92 b.t. Adadi: 100.

Buyurtma: № 70.

TDYU tipografiyasida chop etildi.